


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o’sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, 30 933 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 20 773 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

### **2024- yil 1- aprel holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyl sonining 15 846 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, ularning ulushi 76,3 % ni tashkil etdi.

**2024- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasiga jalg qilingan,  
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (48,0 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


**2024- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo‘yicha tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 319,0 mld. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 113,9 % ni tashkil etdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (29,2 %), transport xizmatlariga (20,3 %), avtotransport xizmatlariga (19,3 %), moliyaviy xizmatlariga (19,2 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 1 030,4 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2024- yil yanvar-fevral ) oyiga nisbatan xizmatlar hajmi 1 998,4 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Joriy yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (681,7 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (364,2 mlrd. so‘mga), avtotransport xizmatlar (348,9 mlrd. so‘mga), hamda Moliyaviy xizmatlar ( 361,5 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma’lumot uchun: 2023- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar – 264,8 mlrd. so‘m, savdo xizmatlari – 214,2 mlrd. so‘m, transport xizmatlari 176,8 mlrd. so‘m va aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar – 36,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

**2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatharning asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>5 319,0</b>	<b>113,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	258,8	113,5
moliyaviy xizmatlar	1 019,2	128,0
transport xizmatlari	1 080,6	108,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 024,4	110,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	183,3	109,8
savdo xizmatlari	1 552,5	107,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	123,0	106,5
ta’lim sohasidagi xizmatlar	239,4	152,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	78,0	116,9
ijara xizmatlari	110,9	108,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	199,9	106,5
shaxsiy xizmatlar	192,8	108,3
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72,4	131,2
boshqa xizmatlar	208,2	114,6

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar 152,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 131,2 %, moliyaviy xizmatlari 128,0 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 106,5 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 106,5 % hamda savdo xizmatlar 107,2 % da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2024- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 29,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 20,3 %, moliyaviy xizmatlar 19,2 % egallaydi.

2024- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 552,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 29,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 214,2 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

### **Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da**




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2024- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 83,6 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,3 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,1 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




2024- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 258,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sishi 36,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 93,2 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,6 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,4 % ga to'g'ri keladi.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta’sir ko‘rsatdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 019,2 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati esa 128,0 % ni tashkil etdi.

### **2024- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo‘yicha xizmatlar (92,7 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2024- yil yanvar-mart oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 239,4 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish 152,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 183,3 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning ulushi 3,4 % ga yetdi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>O’tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>5 319,0</b>	<b>113,9</b>
Qarshi sh.	1 441,3	120,1
Shahrisabz sh.	242,1	114,7
G‘uzor	217,4	110,9
Dehqonobod	153,9	110,7
Qamashi	308,6	109,6
Qarshi	326,0	111,0
Koson	375,9	113,9
Kitob	357,4	112,0
Mirishkor	246,6	110,2
Muborak	344,2	113,0
Nishon	208,4	111,7
Kasbi	228,8	110,3
Ko‘kdala	83,7	112,6
Chiroqchi	177,3	114,1
Shahrisabz	336,4	112,0
Yakkabog‘	271,0	110,4

## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

Hududlar o‘rtasida eng katta hajm Qarshi shahri ( 1 441,3 mlrd. so‘m), Koson tumani (375,9 mlrd so‘m), Kitob ( 357,4 mlrd. so‘m), Muborak tuman ( 344,2 mlrd. so‘m) va Shahrisabz tuman ( 336,4 mlrd.so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam hajm Ko‘kdala ( 83,7 mlrd. so‘m), Dehqonobod (153,9 mlrd. so‘m), Chiroqchi tumani ( 177,3 mlrd. so‘m) va Nishon (208,4 mlrd. so‘m) da kuzatilmoqda.


### **2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %**



Yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahar – 120,1 %, Shahrisabz shahar – 114,7 %, Chiroqchi tumani – 114,1 % va Koson tumani 113,9 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

**2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor  
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da**




- Qarshi sh.
- Shahrisabz sh.
- G'uzor
- Dehqonobod
- Qamashi
- Qarshi
- Koson
- Kitob
- Mirishkor
- Muborak
- Nishon
- Kasbi
- Ko'kdala
- Chiroqchi
- Shahrisabz
- Yakkabog'

Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (27,1 %), Koson tumani (7,1 %), Kitob tumani (6,7 %) va Muborak (6,5 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (1,6 %), Dehqonobod tumani (2,9 %) va Chiroqchi (3,3 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati  
(2024-yil yanvar-mart oylari uchun)**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoxda. 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajm 261,8 ming so'mga oshib 1 490,4 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 4 864,2 ming so'm, Muborak tumanida 3 677,8 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (117,4 %) Shahrisabz shahrida (112,8 %), va Koson tumanida (111,2 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lмаган о'sish sur'atlari Yakkabog' (108,2 %), Kasbi (108,0 %), Mirishkor (107,8 %) va Qamashi (107,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida (194,3 mlrd. so‘m), Koson (161,0 mlrd. so‘m) va Koson (160,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Ko‘kdala (30,3 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 552,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,2 % ni tashkil etdi.


**2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
savdo xizmatlarining o‘sish sur’ati, % da**



2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘sish sur’ati Chiroqchi (117,1 %), Koson (116,6 %) va Nishon tumanlarida (115,9 %) kuzatildi.

Eng kam o‘sish sur’ati Qarshi shahar (97,4 %) va Dehqonobod tumanida (101,4 %) qayd etildi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Qarshi shahri (12,5 %) va Koson (10,4 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Dehqonobod tumanida (2,2 %) Ko‘kdala (1,9 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2024- yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 1080,6 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,7 % ni tashkil etdi.

#### **2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur’ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida (181,9 mlrd. so‘m) va Shahrisabz tumanida (105,7 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Ko‘kdala tumanida (18,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.